

**OLMANI NAVDOR KO'CHATLARINI VIGETATEV KO'PAYUVCHI
PAYVANTAGLARDAN YETISHTIRISH TEXNALOGIYASI**

Toshpo'latov Abdumalik Soat o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi.

Toshpulatovabdumalik7@gmail.com

Rayimova Zilola Lutfillo qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13964933>

Annotatsiya. Olmani kuchsiz o'suvchi vegetativ yo'l bilan ko'payadigan payvandtaglarda yetishtirish texnologiyasini. Intensiv bog'lar barpo etilish. Kurtak payvand qilinganda, madaniy nav. Qalqoncha payvandtag.

Kalit so'zlar: Olmani kuchsiz, payvand, intensiv, kurtak, qalamcha, ertagi muddat.

**TECHNOLOGY OF PRODUCING APPLE SEEDLINGS FROM VEGETATIVE
PROPAGATIVE ROOTS**

Abstract. The technology of growing apples on weakly growing vegetatively propagated cuttings. Establishment of intensive gardens. When the bud is grafted, the cultural variety. Weld the shield.

Key words: Apple weak, graft, intensive, bud, pen, fairy term.

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ САЖЕНЦЕВ ЯБЛОНИ ИЗ ВЕГЕТАТИВНО
РАЗМНОЖАЮЩИХ КОРНЕЙ**

Аннотация. Технология выращивания яблок на слаборастущих вегетативно размножаемых черенках. Создание интенсивных садов. При прививке почки культурный сорт. Приварить щит.

Ключевые слова: Яблоня слабая, привитая, интенсивная, бутон, перо, сказочный срок.

Olmani kuchsiz o'suvchi vegetativ yo'l bilan ko'payadigan payvandtaglarda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor payvandtaglar rivojlanishining biologik xususiyatlarini o'rganishga, kurtak payvand qilish davrida payvandtag-payvandust o'simliklarida kechadigan o'suv jarayonlarining fiziologik va biokimyoviy faolligini hisobga olgan holda payvand qilishning qulay muddatini aniqlashga, shuningdek yuqori sifatli standart ko'chatlar olish uchun qo'llaniladigan boshqa agrotexnik tadbirlarga qaratiladi [1; 14 – 15-b.]; [3; 23 – 25-b].

Intensiv bog'lar barpo etilishi uchun mevali o'simliklarning ko'chatlari hozirgi kunda asosan klon payvandtaglarini parxishlari yoki ularni ildiz otirilgan qalamchalaridan hosil qilingan o'simliklarga tegishli navlarni payvandlash yo'li bilan yetishtirilmoqda. Bunday ko'chatlarni yetishtirish agrotexnikasi ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib (yuqoriroq kurtak payvand, qishki payvandlarni chuqur ekish va ularga turli o'stiruvchi moddalar va mikroelementlarni qo'llash [2; 69 – 77-b.], shakllantirish dalasiga ko'chatlarni birmuncha zich joylashtirish, shox-shabballarni shakllantirish balandligini pasaytirish), urug'idan o'stirilgan payvandtaglarda ko'chat yetishtirishdan juda kam farq qiladi

Kurtak payvand qilinganda, madaniy nav bir kurtagi (ko'zi) bilan payvandtagni yaxshilash jarayonini ifodalaydi. Bunda madaniy navning bir vegetatsiya davrida shakllangan novdasidan

kurtakli qalqoncha kesib olinadi va u payvandtagning po'stlog'i ostiga joylashtiriladi. Qalqoncha payvandtag bilan birikib ketadi, kurtakdan esa madaniy nav rivojlana boshlaydi. Kurtak payvand ko'chatzorda amalga oshiriladigan barcha ishlardan ko'ra qo'l mehnatini ko'proq talab qiladigan tadbir hisoblanadi. Uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni o'z vaqtida sifatli o'tkazishga bog'liqdir.

Kurtak payvand qilish muddati payvandtag kambiy to'qimalarining faolligi, payvandust qalamchalarining holati va biologik xususiyatlari hamda agrotexnika va iqlim sharoitlariga ko'ra belgilanadi. Rossiyaning aksariyat hududlarida kurtak payvand qilishga 15-20 iyuldan keyin kirishiladi. Volga bo'yida ko'pgina o'simliklarni kurtak payvand qilish muddati 20 iyuldan 20 avgustgacha bo'lgan vaqt hisoblanadi.

Ertagi muddatlarda (iyun – iyul boshi) payvand qilingan ko'zlar iyul oxiri va avgustda payvand qilinganlarga nisbatan qishga chidamliroq bo'lib chiqqan. Qishki yo'qotishlar ertagi muddatlarda payvand qilinganda yillar bo'yicha 2-8 %, iyul oxiri va avgustda payvand qilinganda esa – 25-35 % chegarasida o'zgargan. Bu vaqtda kechki muddatda payvand qilingandagi yo'qotishlar 60-70% ga yetgan va 45 % dan pasaymagan.

Mualliflar ertagi muddatda payvand qilingan kurtaklarning qishga yuqori chidamliligini shu bilan bog'lashadiki, ular qish davrigacha yetarli miqdorda uglevod to'plashga ulguradi.

Bundan tashqari, iyun oxirida shu vegetatsiya davrida o'sayotgan novdalardagi kurtaklar gul kurtaklarga tabaqalanishga ulgurmaydi va asosan vegetativligicha qoladi. Bunda tutgan kurtaklar orasidagi «gullovcilar» miqdori odatdagi muddatda payvand qilingandagisida 27,6-31,0 % dan ertagi muddatda payvand qilinganda 0,5-3,5 % gacha tushadi. Pirovard natijada ertagi muddatda payvand qilishda bir yillik standart olcha ko'chatlarining chiqishi 1,5-3 marta ortadi. Ertagi muddatda kurtak payvand qilishning yana bir afzalligi – uni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish imkoniyatlarining yuqoriligi.

Odatda kurtak payvand ildiz bo'g'zi yaqiniga qilinadi. So'ngi yillarda birmuncha yuqoriroq (15-20 sm) kurtak payvand qilish afzal ko'rilmogda [3; 114 – 117-b.]. Yuqoriroq kurtak payvand qilishning afzalliklari quyidagilar: payvandust kurtaklar namga kamroq bo'kadi, o'sgan novdalar shamoldan kamroq sinadi, kurtak payvand ishlari osonlashadi, payvandtagi kurtak ustidan kesib tashlashni qor yoqqanda ham amalga oshirish mumkin.

Ko'zlar tutmagan hollarda qalamcha payvand qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. May o'rtalari – iyun boshida olmaning klon payvandtaglariga bahorgi kurtak payvand qilish tavsiya etiladi

Ko'chatzorlar amaliyotida ko'zlarning kuzgi payvandlarini tutuvchanligi har doim 90% dan ortiqdir. Ko'chat chiqishi esa jami payvand qilingan o'simliklarga nisbatan 50 % dan kamroq bo'ladi. Buning boisi shundaki, qor yog'magan qattiq sovuqli qishlarda o'simliklarning kurtaklari sovuqdan zararlanadi yoki bahorda namiqqan qalin qor tagidagi suvda bo'kib qoladi. Bundan tashqari, danakli o'simliklarda kurtaklarning bir qismi gul kurtak bo'lib chiqadi. Gullab bo'lganidan so'ng ular nobud bo'ladi va novda hosil qilmaydi. Yo'qotishlarga tashqi ko'rinishidan sog'lom bo'lsada, ko'karmagan kurtaklar ham kiradi. Yuqoriroqqa (15-20 sm) payvand qilish kurtaklarni bo'kib qolishidan asraydi. Payvand qilingan kurtaklarni ko'plab sovuq urib ketadigan hududlarda payvand qilishning boshqa usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir: bahorgi qalamcha payvand, qishki payvand.

Bahorgi payvand usulida ko'chat yetishtirish kurtak payvandlarni qishgi davrda ko'plab sovuq urish hollari kuzatiladigan hududlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu bois, erta bahorgi payvandni tutmagan kurtak payvandlarni o'rni to'ldirishdan tashqari, mustaqil ravishda o'zini ham qo'llash mumkin, buning uchun payvandtaglar maxsus qoldirilishi lozim.

Erta bahorgi payvand qilishning muvaffaqiyati qalamcha materialini o'z vaqtida sifatli tayyorlash va saqlashga, shuningdek uni o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga bog'liqdir.

Mevachilikning jadal va muvaffaqiyatli rivojlanishida payvandtag materiali nihoyatda katta ahamiyatga ega. Payvand qilinuvchi nav va ekinning mos holdagi agrotexnikasi bilan uyg'unlikda uning to'g'ri tanlanishi mah-suldorlikni gektaridan 20-24 tonnagacha oshirish imkonini beradi, bu esa urug'idan ko'paytirilgan payvandtaglarda o'stirilgan olma bog'lari hosildorligidan ikki barobar yuqoridir. Ko'pgina olimlarning nazariy ishlarida bu borada yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan

Ko'pgina olimlarning bergan ma'lumotiga ko'ra, payvand qilingan kurtaklarning payvandtagga yaxshi birikib ketishi onalik o'simlikda novdalarning faol o'sish holatidagi qalamchalardan foydalanilgan barcha hollarda, ya'ni to'qimalar jadal regeneratsiyalanayotgan davrda olingan kurtakni payvand qilinganda kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, payvand qilinuvchi kurtaklarni o'suv jarayonlari butunlay to'xtagan novdalardan olmaslik lozim.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. ПФ-4947-сон. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. – Тошкент, 2017 йил 7 февраль.
2. Афанасьев О.К. – Технология интенсивных яблоневых садов на слаборослых подвоях в УзССР.- Ташкент, 1989.
3. Буриев Х.Ч., Енилеев Н.Ш., Файзиев Ж.Н. ва б. Мевали ва мева-резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенлогик кузатувлар методикаси. – Тошкент, 2014.
4. Васильченко И.М. Изучение клоновых подвоев и подвойно-привойных комбинаций яблони в условиях Восточной лесостепи УССР: Автореф. дис.... канд. с.-х. наук. - Мичуринск, 1982.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Колос, 1979.
6. Исламов С.Я. Ўзбекистоннинг Марказий минтақасида олмани клон пайвандтагларида кўчат етиштириш технологиясини такомиллаштириш. Қ.х.ф.н. илм. дар. олиш учун ёз. дисс. – Тошкент, 2009.